RAQAMLI TO‘LOVLARNING XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDAGI ROLI

Xamitillayeva Jasmina Jaxongir qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya fakulteti 4-bosqich talabasi
Yuldasheva Umida Asanaliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Xalqaro moliya” kafedrasi professori, DCs.

Anotatsiya: Ushbu maqolada raqamli to‘lov tizimlarining xufyona iqtisodiyotni qisqartirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqaro tajriba asosida raqamli to‘lovlarning shaffoflikni oshirish, soliq bazasini kengaytirish va naqd pul aylanmasini kamaytirish orqali xufyona iqtisodiyotni jilovlash mexanizmlari o‘rganiladi. O‘zbekiston sharoitida raqamli to‘lovlarni joriy etishning ijobiy natijalari va mavjud muammolari – infratuzilma yetishmasligi, aholining raqamli savodxonligi pastligi kabi omillar yoritiladi. Shuningdek, raqamli to‘lovlar rivoji bilan xufyona iqtisodiyot hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari asosida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: raqamli to‘lovlar, xufyona iqtisodiyot, naqdsiz hisob-kitoblar, moliyaviy shaffoflik, soliq bazasi, raqamli iqtisodiyot, pul-kredit siyosati, moliyaviy inklyuziya.

Ключевые слова: цифровые платежи, теневая экономика, безналичные расчёты, финансовая прозрачность, налоговая база, цифровая экономика, денежно-кредитная политика, финансовая инклюзия.

Key words: digital payments, shadow economy, cashless settlements, financial transparency, tax base, digital economy, monetary policy, financial inclusion.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyotida chuqur o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, raqamli to‘lov tizimlarining keng joriy etilishi nafaqat moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirmoqda, balki iqtisodiyotdagi shaffoflikni ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish va xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda ko‘plab davlatlar xufyona iqtisodiyotni jilovlashda aynan raqamli to‘lov infratuzilmasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham bu yo‘nalishda izchil islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish va biznes yuritishda raqobat muhitini yanada rivojlantirish maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlarning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi “Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-246-sonli Farmoni alohida ahamiyatga ega [1]. Mazkur farmon mamlakat iqtisodiyotini yangi, shaffof bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim hujjat bo‘lib, unda 2030-yilga qadar yashirin iqtisodiyot ulushini YaIMga nisbatan 1,3 baravarga qisqartirish hamda savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida naqdsiz to‘lovlar ulushini 75 foizga yetkazish kabi strategik maqsadlar belgilangan.

Farmonning eng muhim qoidalaridan biri – 2026-yil 1-apreldan boshlab qator tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarning faqat bank kartalari yoki elektron to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilishi majburiy etib belgilanganligidir. Jumladan, davlat xizmatlari, kommunal to‘lovlar, alkogol va tamaki mahsulotlari, yoqilg‘i quyish shoxobchalaridagi xizmatlar, qiymati 25 million so‘mdan oshadigan tovar va xizmatlar, shuningdek ko‘chmas mulk va transport vositalarini sotib olish-sotish operatsiyalari naqdsiz shaklda amalga oshirilishi belgilangan. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotdagi “soya” sektorini qisqartirish, soliq tushumlarini oshirish va adolatli raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli to‘lovlarni keng joriy etish jarayonida bir qator muammolar – aholining raqamli savodxonligi darajasi, qishloq joylarida infratuzilma yetishmasligi, shuningdek yangi norasmiylik kanallarining paydo bo‘lishi kabi omillar ham yuzaga kelmoqda. Bu esa mazkur jarayonning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Mazkur maqola aynan raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotni qisqartirishdagi rolini tahlil qilishga, xalqaro tajribani o‘rganish va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini baholashga bag‘ishlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLLI

Raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotni qisqartirishdagi roli masalasi so‘nggi yillarda jahon va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida tobora ko‘proq o‘rganilmoqda. Mavzuning dolzarbligi va ko‘p qirraliligi turli ilmiy maktab vakillarining ushbu jarayonga o‘ziga xos yondashuvlarini shakllantirgan.

Xorijlik olimlardan F. Schneider xufyona iqtisodiyot va naqd pul aylanmasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tadqiq etgan. Uning 162 davlatni qamrab olgan tadqiqotlarida raqamli to‘lovlarning rivojlanishi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda norasmiy iqtisodiyot hajmini sezilarli darajada qisqartirishi aniqlangan [2]. Olimning ilmiy qarashlariga ko‘ra, naqd puldan foydalanishning cheklanishi va elektron to‘lov tizimlarining keng joriy etilishi iqtisodiy operatsiyalarning kuzatilishini ta’minlab, soliq bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

A. Aguilar, J. Frost, R. Guerra, S. Kamin va A. Tombini tomonidan Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) uchun tayyorlangan tadqiqotda 101 davlat bo‘yicha 2014–2019-yillar oralig‘idagi ma’lumotlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli to‘lovlardan foydalanishning bir foiz punktga o‘sishi norasmiy sektorda bandlik ulushining ikki yil davomida 0,06 foiz punktga kamayishiga olib keladi [3]. Mualliflar raqamli to‘lovlarning moliyaviy inklyuziyani yaxshilash va kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar.

S. Hunter, A. Chai, P. Morgan, H.F. Chan va B. Torgler tomonidan Bangladesh va Indoneziya ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan tadqiqotda mobil bank ilovalaridan foydalanish naqd pulga bo‘lgan talabni 4 foizdan 10 foizgacha kamaytirishi aniqlangan [4]. Olimlarning fikricha, raqamli bank xizmatlaridan foydalanish norasmiy moliyaviy operatsiyalarni qisqartirish va moliyaviy sektordagi norasmiylikni kamaytirishga olib keladi.

H.-E. Reimers, F. Schneider va F. Seitz tomonidan evro hududi mamlakatlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda to‘lov innovatsiyalari, xufyona iqtisodiyot va uy xo‘jaliklarining naqd pulga bo‘lgan talabi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan [5]. Tadqiqot natijalari raqamli to‘lov tizimlarining rivojlanishi naqd pulga bo‘lgan talabni kamaytirish va xufyona iqtisodiyot hajmini qisqartirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

A. Hassan va hammualliflari tomonidan Janubiy Afrika mamlakatlari misolida o‘tkazilgan tadqiqotda mobil moliyaviy xizmatlarning xufyona iqtisodiyotga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mobil moliyaviy xizmatlar xufyona iqtisodiyotni sezilarli darajada qisqartirishi mumkin, biroq bu ta’sir tartibga solish sifatiga bevosita bog‘liqdir [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan M. Choriev, M. Karimov, O. Xamrayev va M. Urazovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotda xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalarning o‘rni O‘zbekiston misolida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Germaniya va Janubiy Koreyaning xufyona iqtisodiyotni qisqartirish borasidagi yondashuvlari O‘zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarni joriy etish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlarning samaradorligi baholangan [7].

U.X. Xazratkulov tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli to‘lov tizimlarining rivojlanishi pul aylanmasi barqarorligiga ta’siri O‘zbekiston ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli to‘lov tizimlarining keng joriy etilishi naqd pul ulushini kamaytirish, xufyona iqtisodiyot darajasini pasaytirish va soliq tushumlarini oshirishga xizmat qiladi [8].

Namangan davlat universiteti tadqiqotchilari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda O‘zbekistonda naqdsiz to‘lovlar tizimining rivojlanish tendensiyalari va uning YaIMga

ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, elektron to‘lov tizimlari, mobil bank xizmatlari va QR to‘lovlari orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar hajmining o‘sishi iqtisodiy faollikni jadallashtiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, naqdsiz to‘lovlarning kengayishi moliyaviy shaffoflikni ta’minlash, xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish va soliq tushumlari barqarorligini oshirishga xizmat qiladi [9].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat olimlar raqamli to‘lovlarning rivojlanishi xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda muhim omil ekanligini e’tirof etib, bu jarayonda moliyaviy inklyuziya, naqd pulga bo‘lgan talabning kamayishi va tartibga solish sifatining ahamiyatini birdek ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda O‘zbekiston sharoitida raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotga ta’siri yetarli darajada kompleks o‘rganilmaganligi, tadqiqotlarning asosiy qismi xorijiy tajribaga tayanishi, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda raqamli to‘lov siyosatining samaradorligini baholashga qaratilgan maxsus ilmiy izlanishlarning yetishmasligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotni qisqartirishdagi rolini o‘rganishda induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanilgan. Xususan, induksiya orqali alohida mamlakatlar tajribasidan umumiy xulosalar chiqarilgan, deduksiya yordamida esa nazariy qoidalar O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etilgan. Qiyosiy tahlil orqali xalqaro tajriba bilan O‘zbekiston amaliyoti qiyoslangan.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari, Markaziy bank va Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlar (XVJ, Jahon banki, BIS, OECD) hisobotlari hamda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etgan. Tahlil jarayonida 2019–2026-yillar oralig‘idagi dinamik qatorlar va tarkibiy o‘zgarishlar o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli to‘lov tizimlarining jadal rivojlanishi so‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning eng samarali vositalaridan biriga aylandi. Naqd pul aylanmasining cheklanishi va elektron to‘lovlarning keng joriy etilishi iqtisodiy operatsiyalarning kuzatilishini ta’minlab, soliq bazasini kengaytirish, shaffoflikni oshirish hamda norasmiy sektor ulushini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu bo‘limda raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotga ta’siri xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti misolida tahlil qilinadi.

Jahon miqyosida raqamli to‘lovlarning rivojlanishi va xufyona iqtisodiyot hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘plab tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan, Norvegiyada 2024-yilda to‘lovlarning 97–98 foizi naqdsiz shaklda amalga oshirilgan bo‘lib, bu mamlakatda xufyona iqtisodiyot hajmi YaIMning atigi 6,4 foizini tashkil etgan. Estoniya raqamli soliq deklaratsiyasi, elektron hisob-fakturalar va milliy

elektron identifikatsiya tizimini joriy etish orqali xufyona iqtisodiyotni YaIMning taxminan 10 foizigacha qisqartirishga erishgan. Ushbu misollar raqamli to‘lov infratuzilmasining rivojlanganligi xufyona iqtisodiyot darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) tomonidan 101 davlat bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli to‘lovlardan foydalanishning bir foiz punktga o‘sishi norasmiy sektorda bandlik ulushining ikki yil davomida 0,06 foiz punktga kamayishiga olib keladi. Ukraina misolida Diia platformasi joriy etilgandan so‘ng naqdsiz tranzaksiyalar ulushi 25 foizdan 68 foizga o‘sgan, xufyona iqtisodiyot esa YaIMning 40 foizidan 30 foiziga pasaygan. Bu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti −0,89 ni tashkil etgan.

O‘zbekistonda ham raqamli to‘lov tizimlarining rivojlanishi xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda sezilarli natijalar bermoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda naqdsiz hisob-kitoblar hajmi izchil o‘sib bormoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda banklarga terminal va mobil ilovalar orqali tushumlar ulushi 43 foizgacha, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida esa 48 foizgacha o‘sgan. Bank kartalariga kirim qilingan mablag‘lar 1 496 trln so‘mgacha (2024-yilga nisbatan +45%) ortgan, naqdlashtirish esa 279 trln so‘mga (−23%) kamaygan.

Xufyona iqtisodiyot hajmida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. 2024-yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi 505 trln so‘mni (YaIMning 34,8 foizini) tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 26,9 foizga pasaygan. Xususan, norasmiy iqtisodiyot ulushi 26,4 foizdan 19 foizga, xufyona sektor ulushi esa 8,4 foizdan 7,9 foizga kamaygan. Ushbu dinamika raqamli to‘lovlarning keng joriy etilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, quyidagi jadvalda bu jarayonning miqdoriy ifodasi keltirilgan (1-jadval).

1–jadval

O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot va raqamli to‘lovlar dinamikasi (2019–2026-yillar)[1]

Yil	Kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi (YaIMga nisbatan, %)	Naqdsiz to‘lovlar ulushi (%)	Bank kartalariga kirim (trln so‘m)
2019	45–50	25	210
2020	42	28	280
2021	40	32	390
2022	37	35	550
2023	35	38	780
2024	34,8	41	1 030
2025	26,9	43	1 496
2026 (I chorak)	22,9	47	1 750

[1] *Markaziy bank, Milliy statistika qo‘mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2019–2026-yillar oralig‘ida naqdsiz to‘lovlar ulushi 25 foizdan 47 foizga oshgan bo‘lsa, shu davr mobaynida xufyona iqtisodiyot ulushi 45–50 foizdan 22,9 foizga pasaygan. Ushbu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy baholash uchun korrelyatsion tahlil o‘tkazilgan bo‘lib, natijalar teskari kuchli korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi ($r \approx -0,92$). Bu shuni anglatadiki, naqdsiz to‘lovlar ulushining har bir foiz punktga o‘sishi xufyona iqtisodiyot ulushining taxminan 0,8–0,9 foiz punktga qisqarishiga olib keladi. Mazkur bog‘liqlik statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0,01$) bo‘lib, u raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotni jilovlashdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Shuningdek, jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2020–2022-yillarda xufyona iqtisodiyot ulushining pasayish sur’ati nisbatan sekin bo‘lgan (yillik o‘rtacha 2,5 foiz punkt), 2023-yildan boshlab esa bu jarayon jadallashgan (yillik o‘rtacha 4,1 foiz punkt). Ushbu tezlashuv aynan shu davrda raqamli to‘lov infratuzilmasining kengayishi, QR to‘lov tizimlarining joriy etilishi va soliq ma’muriyatchiligida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Bu holat raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotga ta’siri vaqt bo‘yicha kechikish (lag) effekti bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi: dastlabki joriy etish bosqichida samaradorlik past bo‘lib, tizim to‘liq shakllangandan so‘ng sezilarli natijalar beradi.

Bank kartalariga kirim qilingan mablag‘lar hajmining 2019-yildagi 210 trln so‘mdan 2026-yilning birinchi choragida 1 750 trln so‘mga yetgani (8,3 baravar o‘sish) raqamli to‘lov infratuzilmasining jadal kengayganini ko‘rsatadi. Bu o‘sish sur’ati aholi va tadbirkorlik subyektlarining raqamli to‘lov vositalariga bo‘lgan ishonchi ortganini hamda naqdsiz hisob-kitoblarning kundalik amaliyotga chuqur singib borayotganini tasdiqlaydi.



1-rasm. O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot ulushi va naqdsiz to‘lovlar dinamikasi (2019–2026-yillar, %)[2]

[2] *Markaziy bank, Milliy statistika qo‘mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Keltirilgan rasm ma’lumotlari raqamli to‘lovlar va xufyona iqtisodiyot o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni vizual jihatdan yaqqol namoyon etadi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, 2019–2021-yillarda naqdsiz to‘lovlar ulushi sekin o‘sgan (25% dan 32% ga), xufyona iqtisodiyot ulushi esa nisbatan barqaror saqlanib qolgan (45–50% dan 40% ga). 2022-yildan boshlab esa bu jarayon sezilarli tezlashgan: naqdsiz to‘lovlar ulushi 35% dan 47% ga ko‘tarilgan bo‘lsa, xufyona iqtisodiyot ulushi 37% dan 22,9% ga pasaygan. Bu davrda ikki chiziq o‘rtasidagi farq (divergensiya) sezilarli darajada ortgan bo‘lib, bu raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotga ta’siri kuchayganini ko‘rsatadi.

Rasmning ilmiy ahamiyati shundaki, u nafaqat statistik ma’lumotlarni vizuallashtiradi, balki raqamli to‘lov siyosatining samaradorligini baholash imkonini ham beradi. Xususan, grafikdagi burilish nuqtalari (2022–2023-yillar) aynan shu davrda amalga oshirilgan institutsional islohotlar – raqamli to‘lov infratuzilmasining kengayishi, soliq ma’muriyatchiligining raqamlashtirilishi va naqdsiz hisob-kitoblarni rag‘batlantirish choralari bilan mos keladi. Bu esa o‘z navbatida, davlat siyosatining to‘g‘ri yo‘naltirilganligini va raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotni qisqartirishdagi real ta’sirini tasdiqlaydi.

Raqamli to‘lovlar xufyona iqtisodiyotni bir necha kanallar orqali qisqartiradi. Birinchidan, elektron to‘lovlar har bir tranzaksiyaning avtomatik qayd etilishini ta’minlaydi, bu esa soliq organlariga real vaqt rejimida ma’lumotlarni taqdim etadi. Ikkinchidan, naqd pul aylanmasining qisqarishi norasmiy operatsiyalar hajmini kamaytiradi. Uchinchidan, raqamli to‘lov tizimlari moliyaviy inklyuziyani kengaytirib, norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi subyektlarni rasmiy iqtisodiyotga jalb qiladi.

O‘zbekistonda bu mexanizmlar bir qator amaliy choralar orqali mustahkamlanmoqda. Xususan, soliq ma’muriyatchiligida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha Prezidentning 2025-yil 10-iyuldagi PQ-425-son qarori qabul qilingan bo‘lib, unda soliq organlarining avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga sun’iy intellekt elementlarini joriy etish orqali soliq xavflarini tahlil qilish va baholashni yo‘lga qo‘yish belgilangan. Shuningdek, soliq qo‘mitasi tomonidan Soliq LLM til modeli, nutq va matn generatsiyasi texnologiyalari hamda katta ma’lumotlar asosida mashinaviy o‘rganish yechimlari joriy etilmoqda.

Raqamli to‘lovlarning yana bir muhim jihati – elektron hisob-fakturalar, onlayn kassa apparatlari, raqamli markirovka va elektron yuk xatlarining joriy etilishidir. Soliq organlarining ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu choralar natijasida bir qator sohalarda ilgari hisobot qilinmagan faoliyatning 10–20 foizi rasmiy iqtisodiyotga jalb qilingan. Bu esa soliq tushumlarining sezilarli darajada oshishiga olib kelgan: 2025-yilning yanvar–sentyabr oylarida soliq tushumlari 11,27 mlrd yevroni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 18 foizga oshgan.

2-jadval

Raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish kanallari[3]

Ta’sir kanali	Mexanizm	O‘zbekistondagi natija
Tranzaksiyalarning kuzatilishi	Har bir elektron to‘lov avtomatik qayd etiladi	Soliq organlariga real vaqt rejimida ma’lumot yetib boradi
Naqd pul aylanmasining qisqarishi	Naqd operatsiyalar hajmining kamayishi	Naqdlashtirish 2025-yilda 23% ga kamaygan
Moliyaviy inklyuziya	Norasmiy sektordagi subyektlarning rasmiy tizimga kirishi	2025-yilda 14,5 mln foydalanuvchi Soliq ilovasida ro‘yxatdan o‘tgan
Elektron hisob-fakturalar	Hisob-fakturalarning raqamli shaklda yuritilishi	Hisobot qilinmagan faoliyatning 10–20 foizi rasmiylashtirilgan
Sun’iy intellekt va Big Data	Soliq xavflarini avtomatik tahlil qilish	Soliq tushumlari 18% ga oshgan (2025-yil 9 oyi)
QR kod va mobil to‘lovlar	Tezkor va qulay to‘lov imkoniyati	Mobil bank tranzaksiyalari 646 trln so‘mga yetgan

Jadvalda raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari olti asosiy kanal bo‘yicha tizimlashtirilgan. Ushbu kanallar o‘zaro dialektik bog‘liqlikda bo‘lib, har biri norasmiylikni qisqartirishning alohida jihatini qamrab oladi.

Tranzaksiyalarning kuzatilishi raqamli to‘lovlarning eng fundamental xususiyatini aks ettirib, har bir elektron operatsiyaning avtomatik qayd etilishi soliq organlariga real vaqt rejimida ma’lumot yetib borishini ta’minlaydi. Bu esa axborot assimetriyasini kamaytirib, soliq bazasining to‘liq qamrab olinishiga zamin yaratadi.

Naqd pul aylanmasining qisqarishi xufyona iqtisodiyotning asosiy infratuzilmaviy omilini bartaraf etishga qaratilgan. 2025-yilda naqdlashtirishning 23 foizga kamaygani raqamli to‘lovlarning bu sohadagi real ta’sirini ko‘rsatadi va norasmiy sektorning moliyaviy bazasini toraytiradi.

Moliyaviy inklyuziya raqamli to‘lovlarning ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. 14,5 million foydalanuvchining Soliq ilovasida ro‘yxatdan o‘tgani norasmiy sektordagi subyektlarning rasmiy iqtisodiyotga jalb qilinayotganini tasdiqlaydi va soliq bazasini kengaytiradi.

Elektron hisob-fakturalar soliq ma’muriyatchiligining raqamli transformatsiyasining muhim elementi sifatida hisobot qilinmagan faoliyatning 10–20 foizini rasmiylashtirishga imkon bergan. Bu esa har bir xarid-sotish operatsiyasining avtomatik nazoratini ta’minlaydi.

[3] *Markaziy bank, Soliq qo‘mitasi va xalqaro hisobotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalari soliq xavflarini avtomatik tahlil qilish orqali soliq tushumlarining 18 foizga oshishiga olib kelgan. Bu texnologiyalar soliq auditini avtomatlashtirib, ma’muriyatchilikning shaffofligini oshiradi.

QR kod va mobil to‘lovlar raqamli to‘lovlarning ommaviy xarakterini ifodalaydi. Mobil bank tranzaksiyalarining 646 trillion so‘mga yetgani aholining kundalik operatsiyalarida raqamli vositalardan keng foydalanayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan kanallar birgalikda raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotga ta’sirining yaxlit tizimini tashkil etadi. Ular o‘zaro bir-birini kuchaytirib, raqamli to‘lovlar ekotizimini xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning o‘zini o‘zi mustahkamlovchi mexanizmiga aylantiradi.

Xulosa va takliflar

Raqamli to‘lov tizimlarining jadal rivojlanishi xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning eng samarali vositalaridan biriga aylandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, naqdsiz hisob-kitoblar hajmining o‘sishi iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini ta’minlab, soliq bazasini kengaytirish, norasmiy sektor ulushini kamaytirish va davlat budjeti tushumlarini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O‘zbekistonda raqamli to‘lovlarning keng joriy etilishi xufyona iqtisodiyot ulushining izchil pasayishiga olib kelmoqda.

Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakat o‘z sharoitiga mos raqamli to‘lov modelini shakllantirgan bo‘lib, O‘zbekiston bu borada ilg‘or xorijiy amaliyotlardan o‘rganishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli to‘lovlarning keng joriy etilishi moliya tizimida multiplikativ effekt yaratib, iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshiradi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Raqamli to‘lovlarning xufyona iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish kanallarini tahlil qilish asosida quyidagi yo‘nalishlarni istiqbolli deb hisoblash mumkin. Birinchidan, P2P o‘tkazmalarni monitoring qilish tizimini takomillashtirish va sun’iy intellekt asosida shubhali tranzaksiyalarni avtomatik aniqlash mexanizmlarini joriy etish zarur. Ikkinchidan, qishloq joylarida raqamli to‘lov infratuzilmasini kengaytirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish lozim. Uchinchidan, blokcheyn texnologiyalari asosida soliq ma’lumotlarini saqlash va almashish tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. To‘rtinchidan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish zarur.

Umuman olganda, raqamli to‘lovlar xufyona iqtisodiyotni qisqartirishning samarali vositasi bo‘lib, bu jarayon muayyan xatarlar bilan bog‘liq. Biroq ilg‘or analitik usullarni qo‘llash, katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish va chuqur tahlil qilish asosida samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish orqali bu xatarlarni minimallashtirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-246-son Farmoni. 2025-yil 10-dekabr.
2. Schneider, F., Buehn, A., & Montenegro, C. E. (2011). Shadow economies all over the world: New estimates for 162 countries from 1999 to 2007. In F. Schneider (Ed.), Handbook on the shadow economy. Edward Elgar Publishing.
3. Aguilar, A., Frost, J., Guerra, R., Kamin, S., & Tombini, A. (2024). Digital payments, informality and economic growth. BIS Working Papers, No. 1196.
4. Hunter, S., Chai, A., Morgan, P., Chan, H. F., & Torgler, B. (2024). Mobile banking apps and the informal economy: evidence from survey data in Indonesia and Bangladesh. *Applied Economics*.
5. Reimers, H.-E., Schneider, F., & Seitz, F. (2021). Payment innovations, the shadow economy and cash demand of households in euro area countries. *Journal of Applied Business and Economics*, 23(3).
6. Hassan, A., et al. (2024). Mobile Financial Services and the Shadow Economy in Southern African Countries: Does Regulatory Quality Matter? *OUCI*.
7. Choriev, M., Karimov, M., Xamrayev, O., & Urazov, M. (2025). Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O‘zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 3(4).
8. Khazratkulov, U.Kh. (2025). Ensuring monetary circulation stability through the development of digital payment systems. *Zenodo*.
9. Namangan State University. (2026). Digital economy: The development of cashless payments in Uzbekistan and their impact on Gross Domestic Product (GDP).
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025–2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-425-son qarori. 2025-yil 10-iyul.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil bo‘yicha yillik hisoboti.
12. “Naqdsiz hayot va shaffof iqtisodiyot sari” maqolasi. Yuz.uz, 2026-yil 27-mart.
13. Euronews va Yahoo Finance’da chop etilgan “Uzbekistan sees lower shadow economy share as cashless payments rise” maqolasi. 2026-yil 23-yanvar.
14. Gazeta.uz’ning “2025-yilda naqdsiz pul tushumlari banklarda 43 foizgacha, savdo va xizmatlar sohasida 48 foizgacha o‘sdi — Markaziy bank” maqolasi. 2026-yil 20-fevral.
15. National Statistics Committee (stat.uz) ma’lumotlari. 2026-yil 18-avgust.